

Maktab – bilim dargohi



lug'at



1-topshiriq. Matnni o'qing. Mazmunini so'zlab bering.

Maktab – bilim dargohi. Biz maktabda o'qish, yozish, hisoblashni, atrofimizdagi olam haqidagi bilimlarni o'rganamiz. Ustozlar bolalarga mehr bilan saboq beradilar.

Maktabda biz yangi do'stlar orttiramiz. Ular bilan turli o'yinlar o'ynaymiz, tadbirlarda ishtirok etamiz. Maktab bizni tarbiyalaydi. Kelajakda yaxshi kasb egasi bo'lishimizga yordam beradi. Shuning uchun ham maktabni bilim maskani, tarbiya o'chog'i deymiz. Har bir o'quvchi o'z maktabini sevishi, sinfdoshlarini hurmat qilishi kerak.





1-mashq. Rasmlarni soʻz bilan ifodalab, gaplarni koʻchiring.



Malika dan keldi. Onasiga uy ishlarida yordam berdi.



Keyin dan , larini olib, darslarini tayyorladi.



Maktabda bilim oladi. oʻquvchilarga bilim beradi.



Malika – dagi aʼlochi qizlardan biri.



2-mashq. Nuqtalar oʻrniga mos soʻzlarni qoʻyib, gaplarni koʻchiring.

Maktabda ... yaxshi ... berishadi. Biz darsda har bir ... qunt bilan oʻrganamiz. Oʻquvchilar oʻtilgan mavzular boʻyicha ... va ... bajaradilar. ... soʻzlab, ... yodlaydilar. ... – bilimlar koni.

Foydalanish uchun soʻzlar: matnlarni, maktab, ustozlarimiz, topshiriqlarni, sheʼrlarni, mavzuni, mashq, bilim.



3-mashq. Soʻzlarni mazmuniga koʻra moslashtirib, gaplar tuzing.

Maktab –

turli toʻgaraklar bor.

Sinflarda

musobaqalarda ishtirok etdilar.

Oʻquvchilar

hamma sharoitlar bor.

Ijod zalida

bilim dargohi.

Maktabimizda

tadbir oʻtkazilmoqda.



Oʻz maktabingiz haqida matn tuzing. Mazmunini soʻzlab bering. Lugʻatdagi soʻzlarni yodlang.

